



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

TAMAKI MAHSULOTLARINING CHEK MAYDIAN INSONLARGA ZARARI

Salimova Oltinoy

Talabasi ToshDavTibUniver 1-kurs

Annotasiya

Tamakining chekadigan odamlarga zarar keltirishini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bu haqida takror-takror aytiladi. Lekin tamaki mahsulotlarining zararlari biz o'ylagandan ham kengroq. Ular chekmaydigan odamlarga ham bevosita yoki bilvosita tarzda kattagina zarar berishi mumkin. bu holat esa tamaki mahsulotlari zararlaydigan odamlarning soni chekadigan odamlar sonidan bir necha barobar ko'p bo'lismiga sabab bo'ladi. Quyidagi maqolada ushbu zararlarni birma-bir aytib o'tishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Passiv chekish, karbon monoksid, ekologik muammo, daraxtlar qotili, saraton chaqiruvchi moddalar

Kirish

Zamonaviy dunyoda inson salomatligi bilan bog'liq eng jiddiy muammolardan biri bu — chekishdir. Ko'pchilik sigareta faqat chekuvchining salomatligiga zarar yetkazadi, deb o'laydi. Ammo ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, sigaret chekmaydigan insonlar ham chekuvchilar bilan bir muhitda bo'lgani sababli jiddiy salomatlik muammolariga duch keladilar. Bu holat "passiv chekish" yoki "ikkilamchi chekish" deb ataladi.

Asosiy qism. Har yili yer yuzida 8 million odam chekish tufayli fayli halok bo'ladi. Ularda turli saraton kasalliklari aniqlangan. Bu, albatta, tamaki mahsulotlarining ko'p iste'mol qilishi tufayli kelib chiqqan. Kundalik hayotda biz ko'chada, yon-atrofda chekadigan odamlarni ko'plab uchratamiz. Ular bilan yonma-yon turganda esa ular chegayotgan tamaki tutinidan bevosita nafas olamiz. Vaholangki, tamaki tutini tarkibida nikotin, sianid, karbon monoksid, formaldegit kabi organizm uchun o'ta zararli bo'lgan moddalar mavjud. Tutun tarkibidagi kimyoviy moddalardan



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

taxminan 150 ta modda zaharli, 70 tasi esa saraton chaqiruvchi moddalar hisoblanadi. Ular asab tizimini buzadi, saraton Xavfini keltirib chiqaradi, qon aylanishini yomonlashtiradi, o'pkani zararlaydi va o'ziga o'rgatib qo'yishi ham mumkin. Sigaret tutinini organizmga tushishi, ayniqsa, homilador ayollarga ko'pgina zarar yetkazadi. Ularda muddatdan oldin tug'ish, past vaznli chaqaloqlar va undagi nuqsonlarni ko'rish mumkin. Bolalarda passiv chekishning tasiri ulardagi o'sishdan qolish, intellektual salohiyatning pasayishi bilan namoyon bo'ladi.

Tamaki mahsulotlarini quritish uchun har yili millionlab daraxtlar kesib yog'och holida yoqiladi. Ekologiya, ekologiya deb tinimsiz so'z yuritilayotgan bir vaqtida tabiatga zarar yetkazadigan mahsulotlarning yaratish uchun minglab daraxtlarni qurbon qilyapmiz. Bitta daraxt ikkita odamni kislorod bilan ta'minlash xususiyatiga ega. Endi o'ylab ko'ring, millionlab kesilgan daraxtlar qancha odama zarar yetkazadi? Sigaretlarning "dunyoga kelishi" ham "o'lishi" ham tabiatga zarar bo'lib qolmoqda. "Daraxtlarning qotili" bo'lgan bu mahsulotlar chala o'chishi tufayli ham yong'in chiqarib tabiatdagi daraxtlarning nobud bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda ko'pgina o'rmon yong'lnlari chala ochgan sigaret uchqunlari tufayli yuzaga kelmoqda deb aytish mumkin. Chiqindi mahsulotlarining eng ko'p qismini - 30-40 foizini tamaki mahsulotlari tashkil qilishiga nima deysiz?! Har yili 4.5 trillion tonna sigaret fimplari tabiatga tashlab yuboriladi. Suv havzalari, tuproq, okeanlar zaharli chiqindi bilan qoplanmoqda. U eng ko'p uchraydigan chiqindi turi soblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda tamaki mahsulotlari butun insoniyatga, hayvonlarga, o'simliklarga, umuman olganda, ekoliyaga cheksiz zarar keltirmoqda. Sigaret sabab har yili vafot etayotgan 8 million odamning 1.3 milliontasi passiv chekuvchilarga to'g'ri keladi. Demak, biz o'z organizmimizni chekishdan himoya qilish bilan birga atrofdagilarni ham bu zararli odatdan qutqarishga harakat qilishimiz lozim!



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th July, 2025

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization – WHO) Tobacco: Key facts <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/tobacco>
2. U.S. Centers for Disease Control and Prevention (CDC) Health Effects of Cigarette Smoking
https://www.cdc.gov/tobacco/data_statistics/fact_sheets/health_effects/effects_cig_smoking/
3. National Cancer Institute (NCI, USA) Harms of Cigarette Smoking and Health Benefits of Quitting <https://www.cancer.gov/about-cancer/causes-prevention/risk/tobacco/quit-smoking-fact-sheet>
4. United Nations Environment Programme (UNEP) Smoke and Mirrors: The Environmental Impact of Tobacco <https://www.unep.org/resources/report/smoke-and-mirrors-environmental-impact-tobacco>
5. The Tobacco Atlas (by American Cancer Society & Vital Strategies)
<https://tobaccoatlas.org/>
6. World Bank Report: Economics of Tobacco Control
<https://www.worldbank.org/en/topic/tobacco>
7. World Wildlife Fund (WWF) The environmental impact of tobacco production
<https://www.wwf.org.uk>
8. International Union Against Tuberculosis and Lung Disease Air Pollution from Second-hand Smoke <https://theunion.org/what-we-do/tobacco-control>